

## TURKISTONDA SANOAT KORXONALARI QURILISHIGA DOIR

**I.M. Xaydarov**

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti “Markaziy Osiyo xalqlari tarixi”  
kafedrasi professori, tarix fanlari doktori (DSc).*

**Ziyodullayev Behruz**

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, “Sharq mamlakatlari tarixi”  
yo‘nalishi 2-kurs talabasi.*

*E-mail: izzatillakhon@gmail.com, ziyodullayevbehruz69@gmail.com*

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada Turkiston hududi Rossiya imperiyasining Turkistonni bosib olishidan keyin shakllangan sanoat korxonalarini, ularning vujudga kelish omillari hamda iqtisodiy-ijtimoiy ahamiyati ilmiy jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqotda XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Turkistonda tashkil etilgan paxta tozalash zavodlari, yog‘- moy ishlab chiqarish korxonalarini, temir yo‘l ustaxonalarini va boshqa sanoat tarmoqlarining rivojlanish bosqichlari yoritib berildi.*

**Kalit so‘zlar:** *Turkiston, Rossiya imperiyasi, sanoat korxonalarini, paxta zavodlari, temir yo‘l, mustamlakachilik siyosati, iqtisodiy rivojlanish, Markaziy Osiyo.*

## REGARDING THE CONSTRUCTION OF INDUSTRIAL ENTERPRISES IN TURKISTAN.

**Abstract.** *This article analyzes, from a scientific perspective, the industrial enterprises established in Turkestan after its conquest by the Russian Empire, as well as the factors behind their emergence and their socio-economic significance. The study examines the stages of development of cotton-processing plants, oil production enterprises, railway workshops, and other industrial sectors formed in the late 19th and early 20th centuries in Turkestan.*

**Keywords:** *Turkestan, Russian Empire, industrial enterprises, cotton processing plants, railway, colonial policy, economic development, Central Asia.*

## О СТРОИТЕЛЬСТВЕ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ В ТУРКЕСТАНЕ

**Аннотация.** *В данной статье с научной точки зрения проанализированы промышленные предприятия, созданные в Туркестане после его завоевания Российской империей, а также факторы их возникновения и их социально-экономическое значение.*

*В исследовании освещаются этапы развития хлопкоочистительных заводов, предприятий по производству масел, железнодорожных мастерских и других отраслей промышленности, сформировавшихся во второй половине XIX — начале XX века в Туркестан.*

**Ключевые слова:** *Туркестан, Российская империя, промышленные предприятия, хлопкоочистительные заводы, железная дорога, колониальная политика, экономическое развитие, Центральная Азия.*

**Kirish.** XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya imperiyasining Turkistonni bosib olishi natijasida Turkiston hududi imperiyaning muhim mustamlaka o‘lkalaridan biriga aylandi. Ushbu davrda mintaqada siyosiy tuzum, ijtimoiy-iqtisodiy hayot va xo‘jalik tizimida tub o‘zgarishlar yuz berdi. Ayniqsa, sanoat sohasining shakllanishi va rivojlanishi bevosita imperiya manfaatlarini bilan bog‘liq holda olib borildi. Rossiya imperiyasi tomonidan Turkiston iqtisodiyotini o‘ziga bo‘ysundirish siyosati, avvalo, hududni xomashyo bazasiga aylantirishga qaratilgan edi. Shu maqsadda paxta yetishtirish kengaytirildi, unga xizmat qiluvchi paxta tozalash zavodlari, yog‘- moy ishlab chiqarish korxonalarini, shuningdek, transport infratuzilmasi, xususan temir yo‘l tarmoqlari barpo etildi. Bu jarayonlar mahalliy ishlab chiqarish tizimining o‘ziga xos tarzda rivojlanishiga, ya’ni sanoatning biryoqlama ixtisoslashuviga olib keldi. Shu bilan birga, Rossiya imperiyasi tomonidan amalga oshirilgan iqtisodiy siyosat natijasida mahalliy hunarmandchilik va an’anaviy ishlab chiqarish tarmoqlari inqirozga yuz tutdi. Yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini asosan tashqi kapital va boshqaruvga tayangan bo‘lib, ular mahalliy aholi manfaatlaridan ko‘ra imperiya ehtiyojlarini qondirishga xizmat qildi.

Mazkur maqolaning maqsadi – Turkistonda Rossiya mustamlakachiligi davrida tashkil topgan sanoat korxonalarining shakllanish jarayonini, ularning asosiy yo‘nalishlari hamda mintaqa iqtisodiy hayotiga ko‘rsatgan ta’sirini tahlil qilishdan iborat.

**Adabiyotlar sharxi:** Turkistonning Chor Rossiyasi mustamlakachiligi davridagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlarni o‘rganishda bir qator muhim ilmiy manbalar mavjud. Jumladan, H. Sodiqov, R. Shamsutdinov, P. Ravshanov va Q. Usmonovlarning “Turkiston Chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida”<sup>235</sup> asarida Turkistonning Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi, mustamlaka boshqaruv tizimining joriy etilishi hamda uning mahalliy aholiga ta’siri keng yoritilgan. Asarda siyosiy boshqaruv bilan bir qatorda iqtisodiy ekspluatatsiya va madaniy o‘zgarishlar ham tahlil qilinadi.

<sup>235</sup> Sodiqov H, Shamsutdinov R, Ravshanov P, Usmonov Q. Turkiston Chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida. – Toshkent: Sharq, 2000.

H. Ziyoyevning “Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash (XVIII–XX asr boshlari)” asarida asosan siyosiy va harbiy jarayonlar yoritilgan bo‘lsa-da, unda mustamlakachilik siyosatining iqtisodiy jihatlariga ham e’tibor qaratiladi. Jumladan, Turkistonning Rossiya imperiyasi tarkibiga qo‘shib olinishi natijasida o‘lkaning iqtisodiy hayoti imperiya manfaatlariga bo‘ysundirilgani ta’kidlanadi. Bu jarayonda sanoat korxonalari, ayniqsa paxta tozalash zavodlari, temiryo‘l bilan bog‘liq ustaxonalar va qayta ishlash korxonalari tashkil etilib, ular asosan xomashyoni metropoliyaga yetkazib berishga xizmat qilgan. Muallif buni mustamlakachilik iqtisodiyotining muhim belgisi sifatida baholaydi.<sup>236</sup>

R. Shamsutdinov va boshqalarning “Vatan tarixi (XVI–XX asr boshlari)” o‘quv qo‘llanmasida esa Turkiston tarixining keng davri qamrab olinib, xususan, Rossiya istilosi va mustamlakachilik davri jarayonlari tizimli ravishda bayon etilgan. Ushbu asar umumiy tarixiy kontekstni tushunishda muhim o‘rin tutadi.<sup>237</sup>

B. Eshovning “O‘zbekistonda davlat va mahalliy boshqaruv tarixi” nomli monografiyasida esa Turkistonda davlat boshqaruvi tizimining evolyutsiyasi, xususan, Chor Rossiyasi davrida joriy etilgan boshqaruv tizimi va uning mahalliy boshqaruv organlariga ta’siri chuqur tahlil qilingan.<sup>238</sup>

A.I. Aminov va A. Babaxodjaevning “Markaziy Osiyoning Rossiyaga qo‘shilishining iqtisodiy va siyosiy oqibatlari”<sup>239</sup> asari Turkistonning Rossiya imperiyasi tarkibiga kirishi natijasida yuzaga kelgan o‘zgarishlarni kompleks tarzda tahlil qiluvchi muhim ilmiy manbalardan biridir. Asarda o‘lkaning bosib olinishi nafaqat siyosiy jihatdan, balki iqtisodiy sohada ham tub burilishlarga olib kelgani alohida ta’kidlanadi. Asarda temiryo‘l qurilishi va transport infratuzilmasining rivoji ham sanoat taraqqiyotining muhim omili sifatida ko‘rsatiladi. Temiryo‘llar orqali xomashyo tez va arzon narxda markazga olib ketilgan, bu esa sanoat korxonalarining joylashuvi va faoliyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatgan.

**Natijalar.** Maqolani yozish jarayonida mavzuni to‘liq, chuqur o‘rganar ekanmiz Turkiston Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olingach, o‘lkaga Yevropa sanoat standartlari kirib kela boshlagani va o‘lkadagi manfakturalarga talab tushib ketganini ko‘rishimiz mumkin. Bunday talabning tushib ketishi aholi orasida ishsizlikning kelib chiqishiga sabab bo‘ldi. Natijada Turkistonda sanoat korxonalari tashkil qilinib ishsiz aholi zavodlarga jalb qilina boshlandi.

<sup>236</sup> Ziyoyev H. Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash (XVIII–XX asr boshlari) – Toshkent: “Sharq”, 1998.

<sup>237</sup> Shamsutdinov R. va boshq. Vatan tarixi (XVI–XX asr boshlari) – Toshkent: “Sharq”, 2010.

<sup>238</sup> Bahodir Eshov, “O‘zbekistonda davlat va mahalliy boshqaruv tarixi”. – Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2012.

<sup>239</sup> Aminov A.I. Babaxodjaev A. Markaziy Osiyoning Rossiyaga qo‘shilishining iqtisodiy va siyosiy oqibatlari. – Toshkent, 1966.

Turkiston aholisining Rossiya bosqinidan keyingi nufuzi va umumiy soni haqida aniq ma'lumotlar yo'q. Imperator Aleksandr III ning topshirig'iga ko'ra Turkiston o'lkasini taftish qilgan (1882–1884) F. Girsning aniqlashicha, Turkistonda hammasi (erkak va ayol) bo'lib 2406000 kishi istiqomat qilgan va shundan erkaklar soni taxminan 1200000 kishini tashkil etgan. Manbalarning guvohlik berishicha, XX asr boshida o'lkada 7464100 kishi, Buxoro amirligida 2236437, Xiva xonligida esa 640 mingdan ko'proq kishi yashagan.

Avvalo, mamlakatda sanoat rivojlanishiga zamin yaratganlar rus harbiylari bilan kirib kelgan savdogarlar edi. Dastlab ular shaharlarning “yangi qismlari”da talab darajasidan kelib chiqib fabrikalar va zavodlar qurishni boshladilar. Masalan, Toshkent shahrida savdogarlar Pervushin va Xrennikov spirt ishlab chiqarish zavodi tashkil etishni maqsad qildilar. Ular 1867-yilda Toshkentda aroq va vino zavodlarini ochishga ruxsat so'radilar (o'sha paytda shahar Turkiston viloyati markazi edi). V.Y. Spirdov, V.P. Kuznesov va Z. Bogdanikov ham shu yili Xo'jandda shunday zavodlar ochdilar. Bunday korxonalar bosib olingan hududlarda muntazam tashkil etilib, ularning maqsadi rus harbiylari va ular bilan ko'chib kelgan rus aholisining ehtiyojlarini qondirish edi. Ammo bu shaharlarning “eski qismlarida” yashovchi musulmonlar noroziligiga sabab bo'ldi. Keyinchalik, XX asr boshlarida bunday korxonalar ular yashaydigan hududlarda ham qurilib, mahalliy xalq dunyoqarashiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Ziyolilar, tadbirkorlar va vatanparvarlar ularning ochilishiga qarshi kurashish va mavjudlarini yopish uchun turli tashkilotlarga birlashdilar. Masalan, Samarqandning “eski qismi”da arman savdogarlari tomonidan ochilgan pivo zavodi musulmon tashkiloti tashabbusi bilan yopildi.<sup>240</sup>

Bundan tashqari, dastlab Turkistonda boshqa sanoat korxonalarini tashkil etish jarayonlari tez sur'atlarda amalga oshirildi. Toshkentda birinchi yevropa uslubidagi suv tegirmoni qurildi, ikkinchisi esa keyingi yillarda ishga tushirildi. Shu yili shaharda birinchi charm zavodi qurildi, keyinchalik yana boshqasi barpo etildi. Ularning ta'sirida shaharning eski qismida ham shunga o'xshash korxonalar paydo bo'la boshladi. 1879-yilda birinchi paxta tozalash zavodi qurildi. Shu tariqa rus sanoatchilarining ta'siri ostida yirik mahalliy savdogarlar va boy sanoatchilar guruhi shakllana boshladi. Ularning ba'zilar hatto Peterburg va boshqa Yevropa shaharlarida ham alohida kompaniyalarga ega edilar.

Bundan tashqari, Turkistonda tamaki, gugurt, ipak to'qish, sovun, g'isht, yog', karton, sham, yelim, pilla quritish fabrikalari va bosmaxonalar tashkil etildi. 1915-yilga kelib ularning soni keskin oshib, minglab korxonalarni tashkil etdi va ularning aksariyati mahalliy tadbirkorlarga tegishli edi.

<sup>240</sup> Sodiqov H, Shamsutdinov R, Ravshanov P, Usmonov Q. Turkiston Chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida. – Toshkent: Sharq, 2000. – B. 236.

XIX asr oxirida Toshkentda mahalliy tadbirkorlar soni ortib, ular yirik sanoatchilarga aylanish jarayoni tezlashdi. Ba’zi tadbirkorlar yuzlab savdo va hunarmandchilik korxonalarini boshqargan. Ayrimlari yirik yillik aylanmaga ega fabrikalarga egalik qilgan. Natijada mahalliy investorlar yangi zavod va fabrikalar qurishga katta mablag‘ sarflay boshladilar. G‘isht zavodlari ham kengaya boshladi, chunki yangi shaharlar qurilishi va davlat binolarining ko‘payishi ularning talabini oshirdi. Natijada XX asr boshlarida bu soha muhim yo‘nalishga aylandi va bir nechta g‘isht zavodlari paydo bo‘ldi. Toshkentda bunday zavodlardan biri yirik tadbirkorga tegishli bo‘lib, keng faoliyat yuritgan.

Bu davrda charm ishlab chiqarish ham rivojlandi. Ba’zi tadbirkorlar yiliga katta daromad keltiradigan zavodlarga ega bo‘lib, mahsulotlarini nafaqat mintaqada, balki Yevropa bozorlarida ham sotdilar. Ayrim savdogarlar har yili yuz minglab charm mahsulotlarini Yevropa bozorlariga eksport qilgan. Bu esa mustamlaka sharoitida ham mahalliy tadbirkorlarning kapital to‘plashi va xalqaro savdoda ishtirok etishini ko‘rsatadi. Biroq Rossiya imperiyasi ma’muriyati ularning yanada kuchayishini cheklashga harakat qildi, chunki bu ularning siyosiy va iqtisodiy manfaatlariga tahdid deb qaraldi.<sup>241</sup>

Shu sababli milliy yo‘nalishdagi tadbirkorlarning faoliyati turli yo‘llar bilan cheklab qo‘yildi: qamoqqa olish, mol-mulkni musodara qilish, matbuotni qo‘llab-quvvatlaganlarni jazolash kabi choralar qo‘llanildi. Jadidlar tomonidan ochilgan yangi usul maktablarini qo‘llab-quvvatlagan savdogarlar ham bosimga uchradi. Chunki bunday maktablarda dunyoviy bilimlar ham o‘qitilib, bu esa keyinchalik siyosiy ongning oshishiga olib kelishi mumkin edi. Shu sababli Rossiya ma’muriyati bunday maktablarni yopish uchun turli bahonalar ishlatib, ularning faoliyatini cheklab bordi.

Birinchi guruh vakillarining mulki asosan ularning ajdodlaridan meros bo‘lib qolgan bo‘lib, joylardagi katta yerlar va ko‘chmas mulklardan iborat edi. Ular ulgurji savdo bilan shug‘ullanib pul topishdan tashqari, meros mulklaridan ham katta daromad olardilar. XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab, ularning ko‘pchiligi sharoit ta’sirida yirik savdo va sanoat egalari bo‘lib qoldilar. Masalan, Mirkomil Mo‘minboyev, Mulla Abdulla Muhammadov, Bobojon Sarimsakov, Ahmadjon Yusufbayev, Nigmatulla Xo‘jayev kabi shaxslarni kiritish mumkin. Ular nafaqat mintaqada, balki xorijda ham samarali savdo faoliyatini olib borib, savdo ko‘lamini kengaytirdilar. Masalan, Mirkomil Mo‘minboyev asosan xorijiy banklar va firmalar bilan savdo qilgan bo‘lsa, Toshkentlik yirik investor Tojimuhammad Parij va London yarmarkalarida ishtirok etib, Yevropa savdogarlari bilan savdo aloqalarini o‘rnatgan.<sup>242</sup>

<sup>241</sup> Н.А. Маева “Туркестанская выставка 1886 года” – Ташкент : Типо-литография С. И. Лахтина, 1886.

<sup>242</sup> Н.А. Маева “Туркестанская выставка 1886 года” – Ташкент : Типо-литография С. И. Лахтина, 1886.

Turkiston Xazina Palatasi tomonidan soliq to‘lovchilarning soni va ularning iqtisodiy imkoniyatlarini aniqlash maqsadida tuzilgan ijtimoiy xo‘jalik boshqarmasi hujjatlarida ko‘rsatilishicha, 1884-yilda Qo‘qon shahrida 7711 hovli bo‘lib, ularda 60 ming o‘zbek, 2400 tojik, 420 qirg‘iz, 410 lo‘li, 302 rus, 72 dungan, 21 hind, 17 afg‘on istiqomat qilgan. Qo‘qon shahri aholisining umumiy soni 63642 kishiga yetgan. “Umuman olganda, – deb yozgan edi Girs, – Turkiston o‘lkasining aholisi imperiyaning boshqa qismlarida istiqomat qiluvchi musulmon aholi singari rus hukumatiga nisbatan yaxshi munosabatda emasligini payqamaslikning iloji yo‘q. Shubha yo‘qki, o‘zining siyosiy mustaqilligini yo‘qotib qo‘ygan xalqda o‘tmishini eslash uning g‘olibga nisbatan bo‘lgan munosabatida yoqimsiz ta‘sirini o‘tkazmay qolmaydi. Biroq hukumatimiz bu tuyg‘uni yumshatish uchun mag‘lub xalqning iqtisodiy ahvolini yaxshilash borasida ko‘p ishlarni amalga oshirdi”.

Imperiya Davlat kengashida Turkiston aholisining ruslar bilan birga ta‘lim olishlariga yo‘l qo‘yish masalasi muhokama etilganda, Rossiya imperiyasi harbiy vaziri general-ad‘yutant graf D. Milyutin ham, xalq maorifi vaziri, haqiqiy maxfiy maslahatchi graf D. Tolstov ham Girsning yuqoridagi gaplariga hamohang fikrlar bildirishgan edi. Har ikki vazir ham mahalliy aholi, xususan, o‘zbeklardan tashkil topgan va savdo va dehqonchilik bilan shug‘ullanayotgan muloyim tabiati bilan ajralib turgan musulmon aholini yoppasiga mutaassib deb atash adolatdan bo‘lmasligini qayd etishgan. Vazirlar “ularning ruslar bilan birga ta‘lim olishlariga ruxsat berish” mumkinligini e‘tirof etishgan.

XIX asr oxirlarida o‘lkada sanoat ishlab chiqarishi asosan aholining maishiy ehtiyojlariga xizmat ko‘rsatuvchi mayda hunarmandchilikdan iborat edi. Sanoat ibtidoiy bosqichda edi. Ko‘chmanchi aholi orasida hunarmandchilik: kigiz tayyorlash, uy jihozlari ishlab chiqarish, oila ehtiyoji uchun teri va mo‘yna ishlab chiqarish keng yo‘lga qo‘yilgan edi. Bu yerda kigiz (namat) tayyorlash ancha rivoj topgan, chunki unga talab hamma vaqt katta bo‘lgan. Umuman, Turkistonda bo‘z, atlas, shoyi to‘qish, do‘ppilozlik, temirchilik, zargarlik keng rivoj topgan. Qandolatchilik, shirmonpazlik, novvoylik ham taraqqiy etgan.

Uy-ro‘zg‘or ishlarida, xo‘jalikda kerak bo‘ladigan barcha jihozlar: egar-jabduq, sandiq, mis idishlar, xalatlar, charm buyumlar, sopol, yog‘och, kumush, oltin buyumlar, ketmon, pichoq, maxsi, kalish va shu kabi ko‘pgina narsalar ishlab chiqarilgan.

Mintaqa iqtisodiyotini o‘rganish uchun Toshkentda ochilgan O‘rta Osiyo sanoat va qishloq xo‘jaligiga doir birinchi (1886) va ikkinchi (1890) Turkiston ko‘rgazmalarida mahalliy hunarmandlar hamda sanoat korxonalarida ishlab chiqargan buyumlar, qishloq xo‘jalik mahsulotlari namoyish qilinganda gilam to‘quvchilar, qurolsozlar, zargarlar va to‘quvchilarning tayyorlagan buyumlari ko‘rgazma ishtirokchilarining diqqat-e‘tiborini qozongan edi.

Shuni ham aytish kerakki, shahar hunarmandlari XIX asrning ikkinchi yarmida paxta yigirish uchun charx, qo‘lbobo to‘quv dastgohini ishlab chiqardilar. Bu buyumlar ancha oddiy bo‘lib, undan foydalanishni o‘rganish uchun ko‘p vaqt talab qilinmas, maxsus malakaga ega bo‘lishning ham hojati yo‘q edi.

XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Rossiyadan sanoat mahsulotlarining keltirilishi ortib borgan sari mahalliy hunarmandchilik ishlab chiqarishi inqirozga uchray boshladi. To‘quvchi qo‘l dastgohida 17–18 soatdan ishlab bor-yo‘g‘i 4–8 arshin (1 arshin 72.12 smga teng) mato ishlab chiqarar, lekin oladigan maoshi arzimagan miqdorda edi. Xonavayron bo‘lgan hunarmand-kosiblarning soni ortib bordi.

Xonliklar Rossiya tarafidan bosib olinishiga qadar ularda fabrika va manufaktura ishlab chiqarishi bo‘lmasa-da, ba’zi tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, “uyda ishlaydigan dehqon hunarmandchiligiga asoslangan markazlashgan, shuningdek asosan tarqoq holdagi manufakturalarning kurtaklari mavjud bo‘lgan”. Samarqand, Marg‘ilon, Qo‘qon, Andijon, Buxoro shaharlari o‘lkaning hunarmandchilik markazlari hisoblanar edi. Buxoroda 1841-yilda 6 ta cho‘yan quyish sexi bo‘lib, ularda qishloq xo‘jalik qurollari, to‘plar uchun yadro ishlab chiqarilgan. Xuddi shunday korxonalar boshqa xonliklarda ham mavjud edi. Birgina Toshkent shahrining o‘zida 1870-yilda 775 ga yaqin to‘quvchilik ustaxonasi faoliyat ko‘rsatib turgan. Turkiston o‘lkasida rus kapitaliga xizmat ko‘rsatuvchi katta-kichik korxonalar soni ham asta-sekin ortib borgan.<sup>243</sup>

O‘lka zabt etilgandan so‘ng mahalliy sanoatning rivojlanishi paxtani qayta ishlash bilan bevosita bog‘liq bo‘lib qoldi. Paxta tozalash, yog‘, sovun pishirish korxonalari tarmog‘i kengaydi. Turkistondagi birinchi paxta tozalash zavodi 1874-yilda Toshkentda qurildi. 1880-yilda Olimxo‘ja Muhammadjonov Andijonda paxta tozalash zavodi qurdi, sanoatchi L. Yugovich 1881-yilda Kattaqo‘rg‘onda shunday zavod barpo etdi. 1890-yilda esa Andijon tumanining Bo‘taqora qishlog‘ida paxta zavodi ishga tushirildi. U ko‘p tarmoqli agrosanoat korxonasi bo‘lgan «Andreyev xutori» nomli savdo-sanoat shirkati tarkibiga kirdi. Zavod bir kecha-kunduzda taxminan 1800 pud paxtani chigitdan tozalagan. Mavsum mobaynida 200 ming pudgacha (3200 t) paxtani tozalash imkoniyatiga ega bo‘lgan.

Xullas, 1880–1914-yillar orasida qariyb 220 ta paxta tozalash zavodi qurildi. Bunday zavodlar Buxoro amirligida va Xiva xonligida ham barpo etildi. Masalan, Buxoro amirligida 1905-yilda 9 ta, 1913-yilda esa 26 ta paxta zavodi ishlab turgan. 1890 yilda Xiva xonligida 81 ta sanoat korxonasi bo‘lib, ulardan 27 tasi nisbatan yirik korxonalar edi. 1917-yilgi fevral inqilobi arafasida Xiva xonligida 36 ta paxta tozalash zavodi, 4 ta yog‘ va sovun ishlab chiqarish zavodlari ishlab turgan. Paxta tozalash zavodlarining egalari savdogarlar va yirik

<sup>243</sup> Shamsutdinov R. va boshq. Vatan tarixi (XVI–XX asr boshlari) – Toshkent: “Sharq”, 2010, - B. 189.

yeregalari bo‘lib, ular orasida aka-uka Vadyayevlar, Fuzalovlar, Yusufboyevlarning salmog‘i katta bo‘lgan.

Dastlabki yog‘ ishlab chiqarish zavodlari 1884-yilda Qo‘qon va Toshkentda paydo bo‘ldi. 1897-yilda Kattaqo‘rg‘onda ham yog‘ zavodining qurilishi o‘lkada yirik yog‘ ishlab chiqarish korxonalarining paydo bo‘lishiga asos yaratdi. 1915-yilda bu yog‘ zavodi qariyb 2 mln. pud yog‘, 5 mln. puddan ko‘proq kunjara, 5 mln. pudga yaqin shulixa ishlab chiqargan. Yog‘ ishlab chiqaruvchi korxonalarining anchagina qismi Farg‘onada joylashgan. Bu yerda tayyorlangan o‘simlik yog‘ining talay qismi Rossiyaga, kunjara Germaniya va Angliyaga olib ketilgan.

Paxta sanoatchilarining yirik monopol birlashmalari ham vujudga keldi. 1915-yilning iyulida 5 ta yirik firmani birlashtirgan “Beshbosh” savdo-sanoat shirkati tashkil etildi. 1892-yildan 1915-yilgacha o‘lkada Davlat banklarining 10 ga yaqin bo‘limlari va xususiy tijorat banklarining 40 ta bo‘limi ochildi. Bank-moliya kapitali O‘rta Osiyo iqtisodiyotining barcha sohalariga kirib bordi. Dastlabki monopoliyalar paxtachilikda va u bilan bog‘liq bo‘lgan yog‘ ishlab chiqarish sohasida vujudga keldi. Lekin ular ichki jamg‘armalar hisobiga emas, balki Rossiya moliya kapitali tomonidan tashkil etildi. Turkiston o‘lkasiga xorijiy firmalar va ularning kapitallari ham kirib keldi. Ular orasida jahonga mashhur “Zinger” firmasi alohida o‘rin tutadi. Rossiyani o‘lka bilan bog‘lagan temir yo‘llar ishga tushirilgach, rus va chet el kapitalining Turkistonga kirishi uchun katta imkoniyatlar ochildi.<sup>244</sup>

O‘rta Osiyo (1880–1898 yillar), Toshkent–Orenburg (1901–1906 yillar) temir yo‘llari davlat xazinasi mablag‘i hisobiga, Farg‘ona (1911–1916 yillar), Buxoro (1914–1916 yillar), Yettisuv (1912–1917 yillar) temir yo‘llari esa hissadorlik jamiyatlari hisobiga qurildi.

Temir yo‘llarning qurilishi, harakat tartibining o‘sib borishi va tashiladigan yuklar hajmining ko‘payishi joylarda qudratli ta‘mirlash bazasini vujudga keltirishni talab qilar edi. Temir yo‘llar yoqasida ularga xizmat ko‘rsatadigan ustaxona va depolar qurila boshlandi. 1882-yilda Qizil Arvot vagon-ta‘mirlash, 1900-yilda Toshkent va Krasnovodsk ustaxonalari ishga tushirildi.

O‘lkada 1895-yildan 1914-yilgacha 11 ta urug‘ zavodi, o‘nlab ko‘n, g‘isht, ohak qizdirish, mis eritish, jun yuvish sexlari, vino, pivo, farmatsevtika, oziq-ovqat korxonalari ishga tushirildi.

Elektrlashtirish hali boshlang‘ich holatda edi. Faqat bir nechta yirik korxonalarda elektr apparatlari mavjud edi, xolos. “Chimyon” hissadorlik jamiyatining neft haydash zavodi o‘zining dizel elektr stansiyasidan quvvat olgan. Qovunchi qand zavodi esa xususiy GESiga

<sup>244</sup> Sodiqov H, Shamsutdinov R, Ravshanov P, Usmonov Q. Turkiston Chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida. – Toshkent: Sharq, 2000. – B. 238.

ega bo‘lgan. Turkiston o‘lkasida elektr quvvatining ishlatilishi hali boshlang‘ich bosqichda bo‘lsa, G‘arbiy Yevropa mamlakatlari 30–50 yil oldin bu yo‘lni bosib o‘tishgan. Agar 1913 yilda Rossiyada aholi jon boshiga faqat 14 kvat. soat elektr quvvati to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, Turkistondagi aholi jon boshiga 1 kvat. soat elektr quvvati ishlab chiqarilgan.

Shuni unutmazlik kerakki, XX asr boshlarida o‘lkaning sanoat jihatidan rivojlanishi Rossiyaga qaraganda ancha pastroq darajada edi. 1908-yilgi sanoat korxonalarini ro‘yxati ma‘lumotlariga qaraganda, bu yerda 378 ta sanoat korxonasi mavjud bo‘lib, u butun Rossiya imperiyasidagi barcha sanoat korxonalarining 2%ini tashkil etgan. Viloyatlarda sanoat bir xilda rivojlanmagan. 1880-yildan 1914-yilgacha Farg‘ona viloyatida 224 ta, Samarqand viloyatida 163 ta, Yettisuv viloyatida 107 ta korxonalar bunyod etilgan. Sanoat korxonalarining 60 foizi o‘lkaning yirik shaharlarida joylashgan.

Yana shuni ham aytish kerakki, o‘lkadagi ishchilarning asosiy qismini (70%ini) mavsumiy ishchilar tashkil etgan. Bu hol paxta yetishtirishga xizmat ko‘rsatuvchi korxonalarining ustuvorligi bilan belgilandi. Paxta tozalash, jun, yog‘ sanoatida mavsumiy mehnat ommalashgan edi. Korxonalar hajmining kichikligi, texnika ta‘minotining zaifligi doimiy ishchi kadrlar paydo bo‘lishini sekinlashtirdi. Doimiy ishchi kadrlar avvalo kon qazish sanoatida va temir yo‘l qurilishida ko‘proq vujudga keldi. 1912-yilda Sirdaryo, Farg‘ona va Samarqand viloyatlarida jami ishchilar 1904 kishini tashkil qildi.

O‘lka sanoat korxonalarida mehnat sharoiti nihoyatda og‘ir bo‘lib, mehnatni muhofaza qilishga mutlaqo e‘tibor berilmagan. Fabrika mexaniklaridan birining xabariga ko‘ra, 1907-yilning iyulida “Katta Yaroslavl manufakturasi” shirkati zavodlarida o‘zbek ishchilaridan 18 kishi shikastlangan. Ulardan 12 kishi mutlaqo ishga yaroqsiz bo‘lib qolgan. 1906 yilda “Chimyon” neft konlarida 53 kishi mayib bo‘lgan. Shikast topganlarning ko‘plari mahalliy millat vakillari edi. Birgina 1911-yilning o‘zida O‘rta Osiyo temir yo‘lida 2938 baxtsiz hodisa ro‘y bergan. Ishchilarni sug‘urta qilish esa korxonalarining ayrimlaridagina mavjud edi, xolos. Zavod, fabrika va shaxtalarning egalari ko‘p hollarda baxtsiz holatlar ro‘y berganligini yashirishar yoki ularning sonini ataylab kamaytirib ko‘rsatishgan.<sup>245</sup>

Ishchilar safida xotin-qizlar ham bo‘lgani haqida ma‘lumotlar bor. O‘zbek ayollaridan asosan sanoatning pilla quritish va qurt urug‘i olish tarmoqlarida foydalanilgan. Pilla quritish fabrikalarida ayollar 56,5 foizni tashkil qilgan. Xullas, 1914 yilda o‘lkaning fabrika-zavod sanoatida 3672 ayol, shu jumladan, 2417 o‘zbek ayoli ishlagan.

Kapitalistlar qurilish ishlarida arzon ishchi kuchiga ehtiyoj sezgan. Shuning uchun ham podsho ma‘muriyati o‘lkaga chet el fuqarolarining ish izlab kelishiga to‘sqinlik qilmagan.

<sup>245</sup> Абдуллаев У. Отражение межэтнических связей в материальной культуре народов Ферганской долины в конце XIX - начале XX в. // Узбекистан тарихи. Ташкент, 1999. №4

Farg‘ona vodiysiga faqat Qoshg‘ardan 1904-yili 14556 kishi, 1905-yili 13337 kishi, 1907-yili 25056 kishi, 1909-yili 12725 kishi, 1911-yili 26463 kishi, 1912-yili 27174 kishi ishlash uchun kelgan. Afg‘oniston, Eron, Sharqiy Turkistondan ish qidirib kelgan kishilar passportsiz yashab amalda huquqsiz bo‘lib qolgan edilar. Ular qishloq xo‘jalik mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarida, konlar va shaxtalarda, qurilishlarda va temir yo‘lda qora ishchi bo‘lib ishlagan edilar.

**Xulosa.** Xulosa qiladigan bo‘lsak XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda iqtisodiy hayot kolonial tizim ta‘sirida keskin o‘zgaragan. Mahalliy sanoat va hunarmandchilik asta-sekin tanazzulga uchrab, uning o‘rnini Rossiya kapitali bilan bog‘liq paxta xomashyosini qayta ishlashga yo‘naltirilgan sanoat egallagan. Bu jarayon mintaqani xomashyo bazasiga aylantirib qo‘ygan. Shu bilan birga, o‘lkada mahalliy tadbirkorlar va savdogarlar orasidan yangi boy qatlam shakllanib, ular savdo, hunarmandchilik va ayrim sanoat sohalarida faol ishtirok etgan. Biroq ularning rivojlanishi mustamlaka ma‘muriyati tomonidan turli cheklov va bosimlar bilan to‘xtatib turilgan. Sanoat korxonalarida mehnat sharoitlari juda og‘ir bo‘lib, ishchilar huquqlari deyarli himoya qilinmagan, baxtsiz hodisalar ko‘p uchragan. Ishchi kuchining katta qismini mavsumiy va malakasiz mehnat tashkil etgan, ayollar va chetdan kelgan migrantlar arzon ishchi kuchi sifatida keng foydalanilgan. Umuman, bu davr Turkiston iqtisodiyotida bir tomondan kapitalistik munosabatlar kirib kelishi va sanoatning ayrim tarmoqlarda rivojlanishi kuzatilsa, ikkinchi tomondan mustamlakachilik siyosati tufayli mahalliy iqtisodiy mustaqillikning zaiflashuvi va ijtimoiy tengsizlikning kuchayishi bilan xarakterlanadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sodiqov H, Shamsutdinov R, Ravshanov P, Usmonov Q. Turkiston Chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida. – Toshkent: Sharq, 2000.
2. Ziyoyev H. Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash (XVIII–XX asr boshlari) – Toshkent: “Sharq”, 1998.
3. Shamsutdinov R. va boshq. Vatan tarixi (XVI–XX asr boshlari) – Toshkent: “Sharq”, 2010.
4. Bahodir Eshov, “O‘zbekistonda davlat va mahalliy boshqaruv tarixi”. – Toshkent : “Yangi asr avlodi”, 2012.
5. Aminov A.I. Babaxodjaev A. Markaziy Osiyoning Rossiyaga qo‘shilishining iqtisodiy va siyosiy oqibatlari. – Toshkent, 1966.